

TABIAT BILAN TANISHTIRISH

FAOLIYAT ISHLANMALARI



№	Faoliyat mavzulari
1.	Mening jonajon O‘zbekistonim
2.	Mening shahrim, mening mahallam
3.	Men va mening oilam.
4.	Men va mening do‘stlarim
5.	O‘lkam reliefi (shahar, vodiylar, daryolar)
6.	Mavsumiy o‘zgarishlar
7.	Ko‘chmanchi qushlar haqida albom tomosha qilish
8.	Serhosil kuz
9.	“Ustoz otangdek ulug‘” mavzusida suhbat
10.	Nonvoylar mehnati bilan tanishtirish
11.	Dehqon mehnati bilan tanishtirish
12.	Nonvoy mehnati bilan tanishtirish
13.	Non ham non, ushug‘i ham non
14.	O‘zbekistonning oq oltini.
15.	Oq oltindan olinadigan xom ashyolar”
16.	Havo, suv, yer usti transportlari
17.	Men haydovchi bo‘laman.
18.	Yo‘l harakat qoidalarini bilasizmi? mavzusida suhbat
19.	Chorrahada svetafor, teatriga sayohat.
20.	Shoshilinch tezkor harakat xizmatlari
21.	“Yong‘in xavfsizligi” mavzusida suhbat
22.	Bizning yaxshi ishlarimiz” (Bolalar ijodidan)
23.	“Mening chiroyli kemacham” mavzusida suhbat
24.	Men sevgan fasl. (Qish fasli haqidagi suhbat)
25.	Konstitutsiya bosh- qomusimiz
26.	“Sog‘ tanda - sog‘lom aql” faoliyati
27.	Sog‘lom tishlar so g‘lik garovi
28.	“Mening poltocham” shaxsiy hayotdan suhbat faoliyati
29.	“Ustki bosh va oyoq kiyimlarni tayyorlash uchun matoni nimadan tayyorlaydilar” (surat asosida suhbat) faoliyati
30.	“Bayramona yangi yil”
31.	Qorbobo va qorgiz.
32.	Buyuk alloma A. Navoiy
33.	Buyuk alloma Z.M.Bobur Andijon farzandi
34.	To‘kiladigan mahsulotlarni hajmini o‘lchash
35.	Buyumlar, anjomlar va asbob
36.	Milliy naqsh
37.	Askar so‘ziga tushuncha top
38.	14-yanvar-Vatan Himoyachilari kuni
39.	Men va mening tanam
40.	To‘kiladigan jismlarni hajmini o‘lchash.

41.	Mening xaq-huquqim.
42.	Xushmuomilalik alifbosi
43.	O‘zbekiston millatlar aro tinchlik o‘chog‘i
44.	O‘tgan zamonga sayoxat, “Lampochka” tarixi
45.	O‘tgan zamonga sayoxat. Tarixiy muzeyga sayoxat
46.	Idish buyumlari (oshxona anjomlari)
47.	Idishlarni ezozlash
48.	Amir Temur hiyoboni
49.	Bahorgi tomchilar
50.	O‘yinchoqlar haqidagi suhbat
51.	Onalar bayrami
52.	Bahor havosi, Bahorgi yomg‘ir
53.	Birinchi boychechaklar
54.	Navro‘z bayrami
55.	Buyumlar, anjomlar va asboblari
56.	Qumning xususiyatlari.
57.	Butun dunyoda tinchlik
58.	Koinot sirlari
59.	Bizning sayyora, Fazoga sayohat, raketa va samolyotlar
60.	Fazoga sayoxat
61.	Buyuk alloma Ibn Sino
62.	Men, Sen, U, Ular bitta oila.
63.	Bahorgi tomchilar
64.	Hashorotlar
65.	To‘kiladigan jismlarni hajmini o‘lchash
66.	“Yong‘in xavfsizligi” mavzusida suhbat
67.	O‘yinchoqlar va uning ishtirokchilari
68.	Bizning yaxshi ishlarimiz” (Bolalar ijodidan
69.	O‘zbek xalq idishlari
70.	“Mening chiroyli kemacham mavzusida suhbat”
71.	Suvning xususiyati
72.	Maktabga ekskursiya

Soʻz boshi

Soʻnggi yillarda ijtimoiy buyurtmaning oʻzgarishi yaʼni jamiyatning chuqur fikrlovchi, faol shaxsga ehtiyojini qondirish maktabgacha oʻquv-tarbiya jarayonini yanada kuchaytirish lozimligini koʻrsatdi. Taʼlim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalar hamda koʻrgazmali-amaliy metodni takomillashtirish, bolalarda faoliyatni rejalashtirish koʻnikmalari, ijodkorlikni rivojlantirish taqozo etilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish qiziquvchanlikni oshiradi. Bilish qobiliyati hamda “boshlangʻich taʼlim imidji” rivojlantiriladi. Ijodiy tasavvur esa bolada intellektual va shaxs sifatlarining shakllanishiga turtki beradi. Maktabgacha yoshdan bolalarni maʼnaviy qadriyatlar, milliy merosimizni eʼzozlash hamda tabiat boyliklarini asrash kabi koʻnikmalarni shakllantirib borish, Vatanga sadoqatli avlodni tarbiyalashga imkon beradi.

Tabiat haqidagi bilimlar asta-sekin murakkablashib boradi, bu bosqichda bolalarni alohida predmet va tabiatdagi hodisalar bilan tanishtirish etarli emas, ularga sababiy oqibatlarining aloqadorligi, olam va uning tuzilishi haqida batafsil maʼlumot berish lozim. Bolalarda “Inson-tabiat-jamiyat” tizimining aloqadorligi va qonuniyatlarini tasavvur qilish jarayoni hosil boʻladi. Mavjud va mavjud boʻlmagan tabiiy obʼektlarni belgilari asosida differentsiatsiya (tabaqalashtirish) jarayoni kechadi. Oʻzaro munosabatlar tushuntiriladi ijtimoiy munosabat va tabiat olamining oʻzgarishlari qonuniyatlari, elementar aloqalari oʻrgatiladi. Mana shunday tarzda bolalar tabiat va borliqdagi predmet, hodisalar, ularning sabab va oqibatlarini anglaydilar. Oʻquv faoliyatining muvaffaqiyatini taʼminlovchi zaruriy shartlardan biri kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish koʻnikmasi rivojlantiriladi. Zamonaviy texnologiyalar, metod va vositalarni toʻgʻri tanlash lozimki, bolalarda bilishga boʻlgan qiziqish oʻz oʻrnini yoʻqotmasin. Faol taʼlim metodlari bolalarda tadqiqotchilik faoliyati, ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun sharoit yaratadi. Pedagogik jarayonda oʻqitishning passiv, faol, interfaol kabi zamonaviy usullaridan foydalanishning samarasi milliy pedagogikada oʻz isbotini topgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni nafaqat taʼlimiy faoliyatda balki tarbiyaviy ishlarda, kundalik hayotda kuzatish, sayr, ekskursiya, suhbatlar, oilada ham amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning metodik jihatlari quyidagilarni tashkil etadi:

- bolalarga savol berish imkoniyatini berish, ularning faolligi va tashabbuskorligini toʻxtatmaslik;
- har bir bola uchun muvaffaqiyatga erishish sharoitini yaratish;
- markazlarda tashkil etilgan turli faoliyat jarayonlarida bolalarga tabiat haqida maʼlumot olish imkonini yaratish;
- oʻquv tarbiyaviy faoliyatda har bir bolaning oʻzigagina xos noyob qobiliyatlari, tajribalariga tayanish;
- bolalarni tabiatni yorqin namuna va yaqqol obrazlar orqali tez anglashlarini inobatga olib, koʻrgazmali materiallardan samarali va oʻrinli foydalanish,

- bolalarni kashfiyotchilikka undash maqsadida muammoli vaziyatlar yaratish, yangi bilimlarini qo'llash imkoniyatini berish;
- bolalardagi charchoq yoki toliqishni bartaraf etish maqsadida ish shakllari va faoliyat turlarini almashlab turish;
- bolalarga o'zini namoyon etishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida ijodiy va maxsus topshiriqlar berish;
- tarbiyachilar maktabgacha ta'limda o'yin shakllari, bolalarda tabiat haqida qiziqishlarni oshirish uchun didaktik o'yin, harakatli va rivojlantiruvchi mashqlar, ijodiy topshiriqlar, bilishga oid hikoyalar, muammoli vaziyatlarni echish kabilardan foydalanadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida quyida keltirilgan shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- Bevosita ta'limiy faoliyat;
- Viktorina, ko'rik tanlovlar, bellashuvlar tashkil etish;
- Kuzatish va tajriba o'tkazish;
- Tabiatga oid badiiy asarlar o'qib berish;
- Bolalarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi va kolleksiyalar tashkil etish;
- Ota-onalar bilan hamkorlikda festivallar o'tkazish;
- Hududdagi tarixiy obidalar, hiyobon va maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilgan "Mini-muzey"dagi faoliyat;
- Turli kasb egalari va o'quvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- Videoroliklar, ertak va multifilmlar namoyishi.

Tarbiyachilar bolalarda tabiat haqidagi tassavvurlarni shakllantirishda ularda motivatsiyani oshirishlari maqsadga muvofiq. Natijada bolalarda qiziqish ortadi hamda tasavvurlari kengayadi. Bola shaxsining rivojlanishida faoliyat alohida ahamiyatga ega bo'lib, u tabiatdagi borliqni ko'radi, tushunadi va tahlil qiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uyg'unlik yoki integratsion shaklda amalga oshirilsa, ularni maktab ta'limiga tayyorgarligi samarali bo'ladi.

Mening jonajon O'zbekistonim.

Faoliyat maqsadi: Mustaqil O'zbekiston davlati haqidagi tushunchalarni kengayadi. Mustaqillik sharofati bilan qayta tiklangan haq-huquqlar, ozodlik, Erkinlik, o'z davlat tiliga ega bo'lish, boyliklarning xalq baxt-saodat manfaati yo'lida foydalanib kelayotganligi haqidagi tushuncha oladilar. Videoroliklar orqali vatan haqidagi kompozitsiyani va ashulalarni tinglaydilar.

O'zbekiston Davlat gerbi, bayrog'i, madhiyasi haqidagi bolalar bilimlari mustaxkamlanadi. Tasvir bo'yicha rasm chizish malakasini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Bayram tasvirlangan Videoroliklar, Davlatimiz ramzlari gerbi, bayro g'i, mavzuga oid rasmlar,o'yin uchun jihozlar va tasviriy faoliyat markazi.

Faoliyatning borishi: Bolalar, bugungi suhbatimiz mavzusi quyosh O'zbekiston — ona diyorimiz haqida bo'ladi. Mana, O'zbekiston Mustaqilligining ___ yilini nishonladik. Bu bayram biz uchun katta bayram, milliy bayram hisoblanadi. Kelinglar sizlar ham o'z Vatanimiz haqidagi kompozitsiyani quramiz. (videoroliklar orqali namoyish etiladi).

ko'rsatilgan bayram taassurotlarini so'z bilan ifodalaydilar.

Qani aytinglarchi bolajonlar:

-Bayram dasturida nimalarni ko'rsatib beramiz?

-mustaqil davlat deganda qanday tushuncha bor?

(o'z gerb, o'z madhiyasi, o'z bayro g'i, o'z davlat tili, o'z chegarasi bor davlat).

To'g'ri, mustaqillik sharofati bilan o'z davlatini Erkin bo'ldik. O'z davlat tilimizga ega bo'ldik. Biz o'z boyliklarimizni xalqimiz baxt-saodati, manfaati yo'lida foydalanish huquqiga ega bo'ldik.

Biz qanday boyliklarga egamiz (paxta, neft, toshko'mir, oltin, qanday boshqa boyliklar).

Tarbiyachi: ___ yil unchalik katta muddat bo'lishiga qarab O'zbekiston ___ yiliga mustaqil davlat bo'lib tanildi.

Hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonning bayrog'i, gerbi, madhiyasi qanday bo'lsa O'zbekiston mustaqilligini juda ko'p mamlakatlar tan oldi.

Davlatimiz ramzlari — bayroq, gerb, madhiya O'zbekiston xalqlari uchun qadriyatli g'ururidir. O'zbekiston davlat ramzlari haqidagi kim she'r biladi. (Bolalar javoblari).

Barakalla, bolalar davlat ramzlarini ehzozlash, qadrlash-O'zbekiston qadrlash o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustaxkamlash demakdir. O'zbekiston davlati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodir. Kimesa yilni o'z shux oshiradi. Bu bizning burchimiz. Buni bizlar ayniqsa sportchilarimizni o'zlarida yashaganlarida bayrog'imizni yuqoriga ko'tarilishidan, madhiyamiz yangi harf bilan yozilgan.

Sportchilarimizdan kimlarni bilasizlar :

Bolalar javoblari. (Mashxur sportchilarimiz ishtirokidagi videolavhalar namoyish etiladi.)

O'zbekistonda Prezidentimiz rarbarligida juda ko'p binolar, inshoatlar qurildi. shaxrimiz k...ga tanilgan bo'lmas darajada o'zgarib borayapti.

Biz O'zbekiston kelajagiga ishonch bilan qaraymiz. Kelinglar, bolalar, O'zbekiston di... o'z she'rlarni eslab yoddan aytamiz.

Bolalar she'rlarni aytib bo'lgach, ularga tetiklashtiruvchi mashq sifatida «O'z bayro g'ingga bo'lgan o'yinini o'ynash taklif etiladi. O'yin mazmuni, signal byerilganda, bolalarga 4 xil rangdagi bayroqlar qo'yilgan,bolalar qo'llaridagi rangdagi bayroqqa borib turadilar.

-Kelinglar bolajonlar sizlar bilan vatan haqidagi maqollarni aytish qilamiz. Kim ko'p aytar ekan-?

-Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.

-Bulbul chamanni sevar, odam vatanini.

O'yin tugagach, bolalarga ixtiyoriy rasm chizish taklif etiladi. Bolalar bayram taassurotlari, bayroq, gerb, Xumo qushini tasvirlarlashlari mumkin.

E'tiborga molik jihati: Faoliyat yakunida bolalar davlat, uning mustaqilligi, mahallasi, turar joyiga, har bir davlatga, o'z Vatani — O'zbekistoniga xos mustaqillik omillarini bilib oladilar. Davlat ramzlarini bilishga, qiziqish, ularni hurmat qilish, ulardan faxrlanish tuyg'ularini uyg'otishga yerishiladi.



Mening shahrim, mening mahallam.

Faoliyat maqsadi: Toshkent shaxri haqidagi tushunchasi kengayadi, tugʻilib oʻsgan mahallasini nomlanishini, nima uchun shunday nomlanishini, nima bilan bogʻliqligi haqida ma'lumot beriladi. Bolalarni oʻz mahallalariga mehr qoʻyishga, u yerdagi mavjud anhanalarga rioya qilishga va ularni hurmatlashga oʻrgatiladi.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, nutk va til markazi, kurish-yasash faollik markazi.

Faoliyatning borishi:

Guruhga chet ellik mehmon (ingliz tilini biladigan yordamchi) kirib keladi.

--Good morning children.

(salombolajonlar).

-- where I come .(men kayerga keldim).

Bolalar javoblari .

Kelinglar tanishib olaylik. Men Angliyalik mehmon Ketringman.

Men Oʻzbekiston poytaxti Toshkent shahriga birinchi marotaba kelishim . Sizlar menga Toshkent haqida gapirib beringlar. Men oʻzbek tilini yaxshi tushunaman.

Tarbiyachi: kelinglar bolalar Ketringga Poytaxtimiz Toshkent haqida gapirib byeraylik. “Mening shaxhim, mening mahallam ” mavzusiga oid surat ilib qoʻyiladi Bolalar koʻrgʻazmali rasmlar orqali Toshkent haqida quyidagilarni gapirib beradilar.

--Toshkent—Oʻzbekistonning poytaxti. U katta va chiroyli shahar. Uning juda koʻplab chiroyli va baland binolari bor.

-- Mustaqillik maydoni va “ezgulik arkasi” surhati bilan tanishtiradi.

--Mustaqillik maydonida ezgulik monamenti va favvoralar joylashgan, kiravyerishda esa “Ezgulik arkasi” ustida laylaklar timsoli tushirilgan.

-Oliy majlis binosi, milliy bank, park, binolari bir juft kurant soati, Teleminora, teatr binolari, tsirk binosi, chiroyli metor bekatlari, xayvonot bogʻlari va boshqa koʻplab binolar mavjud. Ketring shaxringiz juda chiroyli ekan.

Tarbiyachi : bolalar ona shahrimizni juda yaxshi koʻrishadi. Toshkentimiz va vatanimiz haqida koʻplab sheʼrlarni biladilar hozir sizga aytib berishadi.

Onamdek ardoqlisan, azizsan Toshkentim.

Sen menga qadrdon,tugʻilgan makonim.

Men seni avaylab, asrayman har chogʻ.

Vijdonimdek toza,tushirmasman dogʻ.

Tarbiyachi: tez aytish qilamizmi, bizga Ketring ham qoʻshiladi.

-Toshkent –SHoshkent boʻlganmi?

-SHoshkent—Toshkent boʻlganmi?

Tarbiyachi: -Kelinglar bolalar sizlar bilan baland-baland binolarni quramiz. Ketringga baland binolarni qurib, Toshkent sitini yasab koʻrsataylik.

Bolalar jamoa boʻlib , binolar yasaydilar, manzaralar bilan bezatadilar. Ketring bolalarni ishlarini kuzatib, ragʻbatlantiradi. Va Toshkentga yana mehmon boʻlib kelishini, boshqa oʻrtogʻlariga Toshkentni Goʻzal shahar ekani, u yerdagi bolalar bilimli, aqlli, bolalar ekanini aytib berishini aytadi. Bolalar bilan ayriladi.

Eʼtiborga molik jihati: Bolalar Oʻzbekiston poytaxti Toshkentligini biladi.

Poytaxtimizda qanday binolar joylashganini, mustaqillik maydonida nimalar joylashganini biladilar. Qurish yasashda jamoa boʻlib ishlaydilar.



Men va mening oilam.

Maqsad: oilasini yaqindan tanishtirib, ular kasblarini to'g'ri aytishga, oila muqaddas dargox ekanini o'rganadilar. O'zlaridan kattalarni hurmat qilish tarbiyasi beriladi.

Kerakli jihozlar: tarbiyachi va bolalarni oilasi tasvirlangan rasmlar (oldindan olib kelish aytilgan bo'ladi). Oila tasvirlangan rasmlar. Tasviriy faoliyat markazidan rangli qog'ozlar, qaychi va qalamlar.

Faoliyatning borishi: bolalar mana bu qo'limdagi rasmda mening oilam tasvirlangan, bu bizning oilamiz, turmush urtog'im, katta o'g'lim, kichik o'g'lim va qizim. Ular quyidagi ishlar bilan shug'ullanadilar dadamiz tadbirkor, men bog'chada ishlayman, katta o'g'lim haydovchi, kichik o'g'lim talaba, qizim esa o'quvchi. Biz ahil oilamiz. Sizlarchi?

Tarbiyachi bolalarni rasmlarini tahriflashlarini kuzatadi va kerak joylarida qo'shimchalar kiritadi.

Tarbiyachi: -Bolalar oila shunday muqaddas joyki, Vatanimiz mana shu oiladan boshlanadi.

qanchalik tinch va farovon bo'lsa, yurtimiz ham tinch bo'ladi. Oilada hamma bir-birini hurmat qiladi. Ota-ona oilaga boshchilik qiladi. Oila xuddi daraxtga o'xshaydi, deb tarbiyachi bolalarga daraxt chizish orqali oilani tushuntirib beradi.

kelib qoladi sizlar bilan tasviriy faoliyat markazida ishlaymiz. U yerda oilamizni tasvirlashga harakat qilamiz. Hammamiz yoqtirgan rangli qog'ozimizdan olamiz va kaftlarimizni uning ustiga chizib, barmoqlar atrofini chizib, qaychi yordamida qirqib chiqamiz. Mana bunday qilib. (

va barmoqlar. Endi har birimiz barmoqlarimizga ota-onamizni, aka-opalarimizni aks ettiramiz. Tarbiyachi bolalarga yordamlashadi. Hammamiz o'z oilamizni tayyorlab bo'ldikmi?

Tarbiyachi: -Bosh so'raydi, bilimlarini mustaxkamlab, bolalar ishlarini doskaga xuddi daraxt shaklida chizib, barmoqlarini qo'yib, aks holda daraxt bargi kabi to'qilishini aytadi. Bolalarni

daraxt shaklida chizib, barmoqlarini qo'yib, aks holda daraxt bargi kabi to'qilishini aytadi. Bolalarni

daraxt shaklida chizib, barmoqlarini qo'yib, aks holda daraxt bargi kabi to'qilishini aytadi. Bolalarni

daraxt shaklida chizib, barmoqlarini qo'yib, aks holda daraxt bargi kabi to'qilishini aytadi. Bolalarni



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-saytimiz orqali o'zingizga kerak bo'lgan hujjatlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga yoki jek567 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

125 listdan iborat tayyorlov guruhlariga tabiat bilan tanishtirish faoliyat ishlanmalarini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

